



O'ZBEK AYOLI

Nargiza Atayeva ,

Urganch davlat universiteti

Filologiya va san'at fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ayol timsoli badiiy talqinda ochib berilib, o'zbek ayolining ma'naviy qudrati, sabr-bardoshi hamda jamiyat va oiladagi muhim o'rni yoritiladi. Shuningdek, ayol baxti jamiyat kelajagi bilan chambarchas bog'liq ekani asoslab beriladi.

Quyosh. U xuddi tirik mavjudotdek. Unda ham insonlarniki kabi ko'ngil bor, nazarimda. Uning mehri olamga sig'maydi, go'yo. Quyosh. Agar Tangri unga jon ato etib, odam qiyofasida yaratmoq istaganida, kimni yaratgan bo'lardi? Shubhasiz, dilbar bir ayolni. Ayol. Bir qo'lida suv to'la chelak, bir qo'lida supurgi bilan hovlisini ozoda qilib, sadaf ichidagi dur misoli tongni qarshi olayotgan u. Olam tun og'ushiga cho'mib, uyqu hammani o'z og'ushiga olganida, beshik boshida alla aytayotgan u.

Dunyoda ikki qudratli kuch bor — biri qilich, yana biri esa qalam. Lekin ulardan ham qudratliroq yana bir kuch bor. Bu tabiat mo'jizasi bo'lgan ayoldir. Ayol so'zining o'zi bir mo'jizadir. Ayolsiz dunyoni, umuman, hayotni tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayolsiz oila bo'lmaydi, oilasiz jamiyat bo'lmaydi, jamiyatsiz esa davlat rivojlanmaydi. Buyuklarning ayollarga ehtiromi o'z davrida yuksak e'tirof etilishi bilan birga, hozirgacha yosh avlodga ibrat bo'lib kelmoqda. Qur'oni karimda “Niso” (Ayollar) nomi bilan alohida sura nozil qilingan bo'lib, unda meros va ayollarga muomala qilish hukmlari bayon etilgan. Muqaddas Islom dinimiz ayolning iffati, sharafiga va haq-huquqlarini to'laligicha ta'minlab berdi. Islom dini bundan o'n besh



asr ilgari ayolni yuksak martabalarga ko'tarishga erishdi. Bu ezgu ibrat faqat Islom ummatiga emas, butun insoniyatga yuksak namuna bo'ldi. Birinchi ayol — Momo Havo Odam Atoning chap qovurg'asidan yaratildi. Hikmatini anglaganingizdek, yurakka yaqin bo'lgani uchun. Payg'ambarimiz alayhissalom ham ayollariga eng shirin gaplarini saralab aytganlar, uying zarur ishlari masalasida ular bilan maslahat qilgan, ishlariga ko'maklashganlar. Biz haqiqiy ayol timsoliga Fotima onamizni, ularning go'zal odobi, hayosi va iffatini misol qilib keltirishimiz mumkin. Hazrati Alidek zotning: “Shamchiroqni o'chiringlar, Fotimaning soyasi ko'chaga tushmasin”, — deyishlari go'zal muhabbat, pok islomiy sevgi va ayolga ehtiromning haqiqiy namunasi hisoblanadi.

O'z davrida kuch-qudrati bilan butun dunyoni egallab olgan Amir Temurdekzot ham ayollarga alohida hurmat bilan qaragan. Ayniqsa, o'z ayoli Bibixonimni juda sevib qadrlagan, davlat ishlarida u bilan maslahatlashgan, dunyoning adolatsizliklaridan charchaganlarida undan panohtopgan. Hattoki, turmush o'rtog'iga qo'l ko'targani uchun o'z o'g'li Mironshohni jazolash maqsadida zindonga tashlattirgani bu zotning yuksak ma'naviyat egasi ekanligidan dalolat beradi.

Ayolning donoligi — bu bebaho xazina. Boz ustiga bu xazina oqilalik va go'zallik bilan siylangan bo'lsa, bu katta qudratdir. Ayol o'z kuchi va aqli bilan butun dunyoni zabt etishi mumkin. Har zamonda ham muvaffiqiyatga erishgan erkak ortida ayol turgan. Bu uning onasi yoki ayolidir. 1890-yilda Henri Ford o'zi yuradigan otsiz aravani ixtiro qiladi. O'sha paytda hamma uning bu ishlaridan natija chiqmasligini aytganida ham u to'xtamagan. Chunki turmush o'rtog'i Klara Jan Ford unga ishonadi va ortida turadi. Oqibatda Henri Ford dunyo tanigan ixtirochilardan biriga aylanadi. Bugungi kunda mashhur Apple kompaniyasining asoschisi Stiv Jobs, Space X va Tesla asoschisi Elon Musk ham, amerikalik yozuvchi, prodyuser va aktyor Stiven King ham har bir muvaffaqiyati ortida onasi turganligini ta'kidlab o'tishgan. Ayol deyishimiz bilan ko'z o'ngimda chinakam



o'zbek ayoli gavdalanadi. O'zbek ayoli — qanchalar sabrli, matonatli, chidamli. Chunki tug'ma qon-qonimizda To'maris, Bibixonim, Gulbadanbegim, Nodira, Uvaysiy, Anbar Otin kabi kuchli, matonatli ayollarning qoni oqib turibdi. O'zbek ayoli obrazini ochib berishda hech qaysi asar Sharof Boshbekovning respublikalararo tanlov g'olibi bo'lgan "Temir xotin" asariga teng kelolmasa kerak. Shuncha yumush, shuncha tashvishni birgina nozik hilqat, niholqomat egasi bo'lmish ayol bajaradi. Ya'ni, o'zbek ayoli.

Qaysi millatda o'ntadan oshiq tuqqan ayollar ko'pligini eshitgansiz? Qaysi millat zaifalari shuncha ishni "g'iq" demay bajaradi? Ayolni zaifa deymiz-u, lekin unga shuncha mashaqqat yuklaymiz. O'zbek ayoli shuncha yumushdan ortib, erining o'dag'aylashini, qaynonasining g'imir-simirini, bolasining g'ingshishini, qo'shnilarining pichir-pichirini ko'tarishi kerak. Shunday katta, matonatli iroda sohibasi ayol. Agar ozgina nolgudek bo'lsa, noshukrga chiqadi; haqqini talab qilsa, "tili chiqib qolgan" bo'ladi. Ortiqcha dam olgudek bo'lsa, "tanbal kelin" degan nom oladi. Unda ham ko'ngil borligi, asablari charchashi, jismi zaiflashishi, kayfiyatsiz bo'lishi hisobga olinmaydi. Hatto temir yaramay, tutab ketgan mehnatlarga o'zbek ayoli yonmasligi, doim xizmatga shay bo'lishi, "labbay" deb turishi, har hunarni qoyillatishi, yegan nonini oqlab qo'yishi, qo'ydek yuvosh bo'lishi kerak. Bunday onadan qanday farzandlar yetishib chiqishi mumkin, deb o'ylaysiz? Albatta, yuvoshgina, nima deyilsa, "xo'p" deydigan, noroziligini bildirishga botinmaydigan, hayotidan nolimaydigan, ammo kun ko'rmaydigan "Qo'chqorlar" yetishib chiqadi. Biz ayollarimizni qadrlamasak, ularning zaifligini hisobga olmasak, yelkasidagi yukni ko'tarishiga yordam bermasak va ma'nan qo'llamasak, kelajagimiz buyuk bo'lishiga umid ham qilmasak bo'laveradi. Farzandlarimiz qachon bizdan ko'ra baxtli bo'loladi? Qachonki ayollarimiz baxtli bo'lsa. Komediya bo'lgan, aslida o'zida tragediyani aks ettirgan "Temir xotin" dramasidan anglaganlarim shular bo'ldi. Ayollarning nozik didi, har ishga qunt bilan yondashuvi, tabiatan saranjom-sarishtaligi ularning barcha sohalarda samarali mehnat qilishining sababidir.



Mehribon ona, suyukli yor, jonkuyar farzand bo'lish bilan bir qatorda, ayollarning yurtimiz farovonligi va xalqimiz ravnaqi yo'lidagi xizmatlari hamisha maqtovg'a va e'zozga sazovor.

Bugungi kunda faol, o'z kasbining ustasi, ijodkor ayol va qizlarning jamiyatdagi o'rni tobora mustahkamlanib bormoqda. XXI asr ayoli jamiyatda muhim rol o'ynamoqda. Ular o'zlarining kasbiy va shaxsiy sohalarida kuch, energiya va iste'dodlarini namoyish etmoqdalar. Zamonaviy dunyoda ayollar yanada mustaqil va faol bo'ldi. Xotin-qizlar siyosat, biznes, fan, san'at va boshqa sohalarda faol ishtirok etmoqdalar. XXI asrdagi ayollarning muhim yutuqlaridan biri — ularning gender tenglik uchun kurashdagi ishtirokidir. Ular o'z huquqlari va jamiyatdagi keng imkoniyatlar uchun kurashdilar. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bugungi kunda ayollarimiz nafaqat tashqi sohada muvaffaqiyatga erishmoqdalar, balki oiladagi shaxsiy rivojlanish va farovonlik haqida ham g'amxo'rlik qilmoqdalar. Ayniqsa, farzand tarbiyasi haqida gap ketganda, ayollarimizning o'rni benihoya kattadir. Ayol, avalambor, ona. Farzandlariga chiroyli tarbiya va go'zal xulq berish — ularning kasbi. Maqomi va martabasi shu bilan o'lchanadi. Binobarin, mamlakat taqdiri shunga bog'liq.

“Bolalarni kim tarbiya qiladi? Albatta, ayollar. Shuning uchun biz qizlarimizni, onalarimizni o'qitishimiz kerak. Shunda jamiyatni o'qitgan bo'lamiz”, — degan edi mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev. Bir so'z bilan aytganda, bugungi kun o'zbek ayoli har taraflama mukammal, o'z haq-huquqlariga va jamiyatdagi o'rniga ega bo'lgan jamiyatning ajralmas bir bo'lagidir. Ayolning qudratini ifodalashga so'zlar yetmaydi. Ayol har zamonda ham dunyoning ustuni bo'lib qolaveradi!